



FACTORS OF IMPROVING THE LEGAL CULTURE OF YOUTH IN THE IMPLEMENTATION OF ENVIRONMENTAL EDUCATION

Jumagul Dadaboyeva

*Candidate of Law, Associate Professor
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Ecological, ecological education, education, youth, legal culture, society, nature.

Received: 22.04.25

Accepted: 24.04.25

Published: 26.04.25

Abstract: The article demonstrates the legal foundations of ecological education in the development of New Uzbekistan with scientific evidence. Environmental development is analyzed on the basis of necessary legal concepts and its main factors. The theoretical foundations, practical significance, and future roles of environmental education are also highlighted.

EKOLOGIK TARBIYANI AMALGA OSHIRISHDA YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH OMILLARI

Jumagul Dadaboyeva

*yuridik fanlari nomzodi, dotsent
Farg'ona davlat universiteti
Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ekologik, ekologik tarbiya, ta'lif-tarbiya, yoshlar, huquqiy madaniyat, jamiyat, tabiyat.

Annotatsiya: Maqlada Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ekologik tarbiyaning huquqiy asoslari ilmiy dalillar bilan ko'rsatilgan. Ekologik taraqqiyot zaririy huquqiy konsepsiylar hamda uning asosiy omillari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik tarbiyaning nazariy poydevori, amaliy ahamiyati va istiqboldagi rollari yoritilgan.

ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В РЕАЛИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Жумагул Даабоева

*Кандидат юридических наук, доцент
Ферганский государственный университет*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Экологическое, экологическое воспитание, образование, молодежь, правовая культура, общество, природа.

Аннотация: В статье научно обоснованы правовые основы экологического воспитания в развитии Нового Узбекистана. Экологическое развитие проанализировано на основе необходимых правовых концепций и его основных факторов. Также освещены теоретические основы, практическое значение и перспективные роли экологического воспитания.

Kirish. Ekologik ta’lim-tarbiya jamiyatda muhim bo‘lib, ekologik ta’lim-tarbiya tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, ekologik ta’lim-tarbiya yoshlarni tabiatdan ongli ravishda foydalanish va ular qalbida tabiatga mehr-muhabbat o‘yg‘otish hamda tejamkorlikka o‘rgatishda asosiy omil hisoblanadi. Albatta, yosh avlod qalbida tabiatga nisbatan hurmat hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim masalalardan sanaladi. Bu o‘z navbatida, yoshlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Ekologiya va inson huquqlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi mutlaqo ayon bo‘lib, nosog‘lom atrof-muhitda yashash inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkinligi va aksincha, inson huquqlari ta’milanishi atrof-muhitni muhofaza qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shunday ekan, inson huquqlarini himoya qilish borasidagi sa’y- harakatlarimiz atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga olib borilishi kerak.

Sog‘lom atrof-muhitni inson huquqlaridan foydalanish uchun dastlabki shart sifatida ko‘rish mumkin, chunki u ma’lum bir huquqdan foydalanish uchun zarur (masalan, toza ichimlik suvi mavjudligi orqali sog‘liq huquqi) yoki umuman inson huquqlaridan foydalanish va ularni ta’minlash imkoniyatini beradi. Jamiyatda fuqarolar qonunga qanchalik amal qilishiga qarab, qonunlar ijrosi aniqlanadi. Agar qonun odamlar tamonidan bajarilmasa, u oddiy qog‘ozligicha qolaveradi. Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi huquqiy davlatining o‘ziga xos xususiyatidir. Huquqiy madaniyat qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning ijro etilishi bilan ham belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekologik tarbiya ekologianing xilma-xillikning qisqarishi eng o‘tkir va murakkab global muammolardan biriga nisbatan madaniy munosabatni shakllantirish zaruratini namoyon qiladi. Bu esa o‘z navbatida huquqiy madaniyatning yorqin ko‘rinishi hamdir. Bunday jarayonlar iqlim ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi va XXI asrda “tabiat-inson” munosabatining strategik omili hisoblanadi

Tadqiqotchi olimlar fikricha, “O‘zbekistonda biologik resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy roli muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Biologik resurslarni barqaror saqlab qolinishini ta’minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik huquqiy qonunchilik mohiyati, biologik resurslar holatiga ta’sir qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslarga ijtimoiy-iqtisodiy usullarni qo‘llashda namoyon bo‘ladi hamda biologik resurslarni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik talablarini bajarishga undaydi”[1.14.]. Bu esa ekologik huquqiy qonunchilik mohiyatini anglab yetish zaruratini taqozo etadi.

“O‘zbekiston-2030 Strategiya”sining uchinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida “aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish”[2.] deb belgilangani ham ekologik tarbiyaning jamiyat va xususan yoshlar tarbiyasida muhim ekanligini bildiradi. Mamlakatlarda konstitutsiya eng oliv va eng kuchli qonun hisoblanib, barcha qonunlar, qarorlar va siyosat unga muvofiq bo‘lishi kerak. Konstitutsiya inson huquqlarini himoya qiladi, davlatning majburiyatlarini belgilaydi hamda hukumat vakolatlarini cheklaydi. Konstitutsiyalar chuqur ma’noda jamiyatning ildiz otgan va noyob qadriyatlarini aks ettiradi. Portugaliya (1976 yilda) va Ispaniya (1978) birinchi bo‘lib sog‘lom atrof-muhit huquqini o‘z konstitutsiyalariga kiritdilar. Portugaliya Konstitutsiyasining 66-moddasida belgilanishicha: “Har kim sog‘lom va ekologik jihatdan muvozanatlari atrof-muhitga ega bo‘lish huquqiga ega va uni himoya qilish burchidir”[3.].

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 30 iyun kuni “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV Qurultoyida so‘zlagan nutqida shunday degan edi, - “Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisidan boshlab, Bosh vazir va uning o‘rnbosarlari, Bosh prokuror, vazirlik va idoralar, kompaniya va xo‘jalik birlashmalarining rahbarlarigacha markazda va joylarda har bir soha bo‘yicha yoshlar bilan uchrashib, doimiy muloqot olib boradigan tartib joriy etishimiz kerak”[4.].

Huquqiy-demokratik davlat sifatida taraqqiy etayotgan O‘zbekistonda o‘z-o‘zini boshqarishning keng yo‘llari joriy etilgan. Jumladan, xalq boshqaruvining ijtimoiy instituti sifatida sinovdan o‘tgan mahallalar mavqeyiga alohida o‘rin berilgan. O‘tmishda mahalla odamlar hayotida turli ezgu g‘oyalarni tarqatish, tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash, insoniylik, mehrmuhabbatni targ‘ib etish vositasi sifatida amal qilib kelingan edi. Shu boisdan hozirgi kunda ham mahalla oqsoqollari va faollari zimmasiga xalq hayoti bilan chuqurroq shug‘ullanish imkoniyatlari yaratilgan. Shu o‘rinda barkamol avlodni shakllanishida ekologik tarbiyaning o‘rni haqida so‘z ketganda quyidagi fikr-mulohazalarimizni bildirib o‘tmoqchimiz. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 iyuldagagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi “Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak” mavzusidagi ma’ruzada kelib chiqqan holda, Milliy parlamentimiz

faoliyatida, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida O‘zbekiston Ekologik harakati muhim o‘rin tutishini inobatga olgan holda Ekologik harakati vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Aholini, ayniqsa qishloq joylarda toza ichimlik suvi bilan ta’minlash;

Maishiy chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish;

Moddiy va ma’naviy jihatdan eskirib qolgan sanoat inshootlari zamonaviy ekologik talablarga javob bermayganlarini qayta zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash;

Eng muhim masala-aholining ekologik madaniyatini oshirish, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik xissini tarbiyalashdir.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, xususan yoshlar huquqiy savodxonligini oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining roli va ishtiroki ahamiyatlidir. Chunki, huquqiy savodxonlik orqali yoshlarimiz ertangi kun egalari sifatida davlatimizning ishonchli kadrlari bo‘lib yetishadi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish yoshlardan siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy yuksaklikdan tashqari huquqiy madaniyatni, huquqiy ongni va huquqiy savodxonlikni talab etishini bugun barchamiz yaxshi anglab turibmiz. O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatda tinchlik va taraqqiyotni yanada rivojlantirish maqsadida yuzdan ortiq millat va elatlar fikri, maqsadini amalga oshirish huquqiy demokratik jamiyat barpo etayotgan O‘zbekiston uchun xos xususiyatdir. Xilma xil partiyalarning vujudga kelishi, ko‘plab turli davlat va nodavlat jamoat tashkilotlarining shakllanishi, turli jamg‘arma, uyushmalarning paydo bo‘lishi mamlakatda demokratiya tamoyillarining amal qilayotganidan dalolatdir. Shunday erkinliklar berish bilan birga bu tashkilotlarning fa’olliyatida xalq hayotida O‘zbekistonning Konstitutsion tuzumiga zid hatti-harakatlar qonun bilan cheklangan.

Atrof-muhitning tozaligi bizning salomatligimiz va farovonligimiz asosiy omillaridan biridir. Shu ma’noda, Prezidentimizning 2023 yil 31 maydagi tegishli qaroriga muvofiq Ekologiya vazirligi huzurida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University) tashkil etilgani ayni muddao bo‘ldi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning empirik usullari sifatida kuzatish, eksperiment, o‘lchashlardan foydalanilgan. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tajribalarni rejalashtirish va o‘tkazish usullari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida bilish va statistik tahlilning standart usullari qo‘llanilgan.

Huquqiy savodxonlikka erishish huquqiy-demokratik davlatning eng katta yutug‘i hisoblanadi. Bunda davlatning har bir fuqarosi o‘z huquq va burchlarini yaxshi bilishi va unga amal qilishi, qonun oldida o‘z mas’uliyatini his qilish majburiyati yotadi. O‘zbekistonda huquqiy savodxonlikni oshirish uchun turli chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa. O‘zbekiston Respublika Prezidentining tashabbusi bilan “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzlusiz

ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va shu asosida ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilib qo‘yildi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida “Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi” ishlab chiqildi. Uning ustuvor vazifalari sifatida ekologik ta’lim-tarbiya berishni, ekologik bilimlarni targ‘ib qilishni, noshirlik faoliyatini, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazishni, ijtimoiy reklama va shu kabilarni tashkil etish; ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish va zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish; ta’lim oluvchilarining e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish; ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish; ekologik ta’limning sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini, barqaror rivojlanishi kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish; ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlat organlari ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish kabilar yoshlarda ekologik madaniyatini oshirish va ularni ekologik tarbiyaning amaliy natijadorligini takomillashtirish uchun zarur ekanligi ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Нарзуллаев О. Х. Ўзбекистонда биологик ресурсларни муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни ҳуқукий тартибга солишни такомиллаштириш. Докторлик (DSc) диссертацияси Автореферати. Тошкент. 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-sod
3. Португалия Республикаси Конституцияси, 02.04.1976 й. // Дунё давлатларининг (мамлакатларининг) конституциялари // URL: <https://worldconstitutions.ru/?p=141>.
4. 2017 йил 30 июн куни “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV Курултойи Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев маърузасидан.
5. Зокирова X., Аслanova M. Оммавий –тарбиявий тадбирларни ташкил этиш бўйича методик қўлланма. Тошкент. 2014.